XALQ DEPUTATLARI PAYARIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 20-iyun VI-103-99-7-100-K/24 Payariq tumani

Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Samarqand viloyati Payariq tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-214-7-100-K/23-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 147-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-sonli Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining navbatdan tashqari IV chaqiriq bir yuz uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Samarqand viloyati Payariq tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-214-7-100-K/23-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Quyidagilar:

Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Samarqand viloyati Payariq tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-214-7-100-K/23-sonli qarorining 1-ilovasiga mazkur qarorning 1-ilovaga muvofiq.

Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Samarqand viloyati Payariq tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-214-7-100-K/23-sonli qarorining 2-ilovasiga mazkur qarorning 2-ilovaga muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (K.Narimanov) tuman mahalliy budjetining 2024-yilgi daromadlari va xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

4. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi (L.Kazakbayev) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Eshonqulov)lar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  DJABBOROV ISROIL ISMOILOVICH

Xalq deputatlari Payariq tumani
Kengashining
2024-yil 20-iyundagi
VI-103-99-7-100-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Payariq tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Samarqand viloyati Payariq tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-214-7-100-K/23-sonli qarorining 1-ilovasiga kiritilayotgan o‘zgartish va qo‘shimchalar:

1. Xalq deputatlari Payariq tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Samarqand viloyati Payariq tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-214-7-100-K/23-sonli qarorining 1-ilovasi quyidagi tartibda bayon etilsin:

Payariq tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming.so‘m

T/R	Daromad turlari	Qiymati
	JAMI	**140 914 400,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	8 002 400,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	36 850 000,0
3	Aksiz solig‘i, jami	14 707 000,0
	shu jumladan:	
	- yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	14 707 000,0
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 200 000,0
5	Yuridik shaxslar yer solig‘i	10 167 000,0
6	Aylanmadan olinadigan soliq	8 950 000,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	16 528 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	28 800 000,0
9	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 030 000,0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	7 140 000,0
11	Norudaqurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	0,0
12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	90 000,0
13	Yig‘imlar	5 450 000,0

Xalq deputatlari Payariq tumani
Kengashining
2024-yil 20-iyundagi
VI-103-99-7-100-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Xalq deputatlari Payariq tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Samarqand viloyati Payariq tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-214-7-100-K/23-sonli qarorining 2-ilovasiga kiritilayotgan o‘zgartish va qo‘shimchalar:

1. Xalq deputatlari Payariq tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Samarqand viloyati Payariq tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-214-7-100-K/23-sonli qarorining 2-ilovasi quyidagi tartibda bayon etilsin:

Payariq tumani mahalliy budjetidan 2024-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming.so‘m

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**294 471 753,0**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	38 158 611,0
2	Tibbiyot birlashmasi	151 523 431,0
3	Madaniyat bo‘limi	5 826 811,0
4	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	13 602 736,0
5	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	5 608 750,0
6	Tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi	4 052 500,0
7	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 604 786,0
8	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi	6 354 523,0

9	Soliq inspeksiyasi	5 850 570,0
10	Tuman hokimligi	61 889 035,0